



UDK:821.0.821.512.133.0

Axadjon MUHAMMADIYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n
E-mail: abdulahadmuhammad@bk.ru

Professor T.Xudayqulov taqrizi asosida

MUHYI VA UNGA ZAMONDOSH SHOIRLAR IJODIDA POETIK JANR VA MAZMUN YANGILANISHI: ADABIY-ESTETIK ASOSLAR VA IJTIMOY-SIYOSIY OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida poetik janr va mazmun yangilanishining adabiy-estetik asoslari hamda ijtimoiy-siyosiy omillarini tahlil qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhiti yuz bergan bu jarayon o'zbek adabiyotida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Maqolada klassik an'analar bilan jadidchilik g'oyalarining uyg'unlashuvi, til-uslubdagi yangiliklar va estetik ideallarning o'zgarishi ko'rib chiqiladi. Muhyi, Furqat, Zavqiy va Muqimiy kabi shoirlarning asarlari misolida she'riyatning ijtimoiy-ma'naviy vazifasi kuchaygani, an'anaviy janrlarga yangi mazmun singdirilgani ta'kidlanadi. Natijada, o'zbek adabiyotida an'ana va yangilik muvofiqlashib, keyingi islohotlar uchun mustahkam zamin yaratilgani xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Poetik janr, mazmun yangilanishi, adabiy-estetik asoslar, ijtimoiy-siyosiy omillar, Qo'qon adabiy muhiti, o'zbek adabiyoti, mumtoz an'analar, jadidchilik, til-uslub, estetik ideallar, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Muqimiy.

THE RENEWAL OF OF POETIC GENRES AND THEMES IN THE WORKS OF MUHYI AND HIS CONTEMPORANEOUS POETICS: ANALYSIS OF LITERARY-AESTHETIC FOUNDATIONS AND SOCIO-POLITICAL FACTORS

Annotation

This article analyzes the literary-aesthetic foundations and socio-political factors behind the renewal of poetic genres and themes in the works of Muhyi and his contemporaneous poets. The process, which occurred in the literary environment of Kokand during the second half of the 19th century and the early 20th century, led to significant changes in Uzbek literature. The article examines the integration of classical traditions with the ideas of Jadidism, innovations in language and style, and the transformation of aesthetic ideals. Through the works of poets such as Muhyi, Furqat, Zavqiy, and Muqimiy, it highlights the strengthening of the social-spiritual function of poetry and the introduction of new meanings into traditional genres. As a result, it is concluded that the balance between tradition and innovation in Uzbek literature laid a strong foundation for future reforms.

Key words: Poetic genres, renewal of themes, literary-aesthetic foundations, socio-political factors, Kokand literary environment, Uzbek literature, classical traditions, Jadidism, language-style, aesthetic ideals, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Muqimiy.

ПОЭТИЧЕСКИЙ ЖАНР И ОБНОВЛЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ МУХИИ И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ: АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Аннотация

Данная статья анализирует литературно-эстетические основы и социально-политические факторы обновления поэтического жанра и содержания в творчестве Мухии и его современников. Этот процесс, происходивший во второй половине XIX – начале XX века в литературной среде Коканда, привел к значительным изменениям в узбекской литературе. В статье рассматриваются синтез классических традиций и идей джадидизма, новшества в языке и стиле, а также трансформация эстетических идеалов. На примере произведений таких поэтов, как Мухий, Фуркат, Завкий и Мукими, подчеркивается усиление социальной и духовной функции поэзии, внедрение нового содержания в традиционные жанры. В результате делается вывод о гармоничном сочетании традиций и новаторства в узбекской литературе, что создало прочную основу для дальнейших реформ.

Ключевые слова: Поэтический жанр, обновление содержания, литературно-эстетические основы, социально-политические факторы, литературная среда Коканда, узбекская литература, классические традиции, джадидизм, язык и стиль, эстетические идеалы, Мухий, Фуркат, Завкий, Мукими.

Kirish. Poetik janrlar turli davrlarda ijtimoiy muhit, an'analar va madaniy o'zgarishlarga bog'liq holda shakllangan. Masalan, qadimgi eposlar jamiyatning qahramonlik va tarixiy xotirani saqlash ehtiyojidan kelib chiqqan. Keyinchalik, romantizm davrida poetik janrlarda shaxsiy kechinmalar, insonning ichki dunyosi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

Jamiyatdagi siyosiy inqiloblar va taraqqiyot yangi g'oyalar, yangi obrazlar va janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Har bir davr o'z estetik qadriyatlarini yaratadi. Har bir shoir yoki yozuvchi o'ziga xos uslub yaratishga harakat qiladi.

Ba'zan bu individual o'zgarishlar keng adabiy jarayonga ta'sir qilib, yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

“Novatorlik har doim ham yangilik kashf etish emas, balki u an'anaga alohida e'tibor bilan qarash va ayni paytda, xotirada uni tiklash hamda u bilan o'xshash bo'lmaslik”dir [1]. Qolaversa, poetik janr va mazmun yangilanishi doimiy jarayon bo'lib, ijtimoiy-siyosiy voqealar, madaniy talablar va ijodkorlarning estetik izlanishlari bilan bog'liq. Bu jarayonda an'anaviy va yangi usullar uyg'unlashib, adabiyotga yangi nafas bag'ishlaydi. Shuning uchun ham har bir davrda poeziya

o'z taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi va muxlislar ehtiyojlariga javob beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda bir qator muhim adabiy va nazariy manbalar tahlil qilindi. Zavqiyning "Ajab zamona", Furqatning "Fasli navbahor o'ldi" nomli she'rlar to'plamlari shoirlar ijodining ijtimoiy lirikasini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Ushbu to'plamlarda shoirlar she'rlarining jadidchilik ruhida o'zgarishlari va estetik xususiyatlari ochib beriladi, bu esa tadqiqot mavzusiga muvofiq muhim ma'lumotlar beradi.

Y.M. Lotmanning "Analiz poeticheskogo teksta. Struktura stixa" asari she'r matnining strukturaviy va semantik tahlili uchun nazariy asos yaratdi. Y. Borevning "Estetika literatury" asarida adabiyotdagi estetik qadriyatlarining o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi. Ushbu manbalar maqoladagi adabiy-estetik va ijtimoiy-siyosiy omillarning o'zaro ta'sirini ko'p qirrali yoritish imkonini berdi va tadqiqotning nazariy negizini mustahkamladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy qiyoslash, tarixiy-qiyosiy, matn tahlili kabi usullardan asosiy metodologiya sifatida foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qo'qon adabiy muhitida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida poetik janr va mazmun yangilanishi o'zbek adabiyotidagi muhim jarayonlardan biri bo'ldi. Binobarin, "novatorlikni o'ylab chiqarib bo'lmaydi. U eng yaxshi an'analardan o'sib chiqishi kerak" [5]. Xuddi shu ma'nodagi yangilanish Muhiy va unga zamonadosh shoirlar ijodida o'ziga xos adabiy-estetik asoslarga tayangan holda yuz berdi. Ushbu jarayonning asosiy jihatlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Adabiy an'analardan bilan uzviy bog'liqlik. Poetik janr va mazmun yangilanishi o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'analardan uzilmadi, balki ularning mukammal shakllariga yangi ruh bag'ishladi. Masalan, An'anaviy g'azalda ishq-muhabbat va tasavvufiy motivlar ustun bo'lgan bo'lsa, Muqimiy, Furqat va Zavqiy kabi shoirlar uni ijtimoiy-ma'naviy g'oyalar bilan boyitdi. Ular g'azalda ma'rifat, adolat va xalq taqdiri kabi mavzularni ko'tardilar. Zokirjon Furqatning:

Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur,

Balki andin dahr eli ortuqcha g'avgo tortadur", – bayti bilan bolanuvchi g'azali fikrimizning dalilidir. Ushbu g'azal an'anaviy poetik obrazlar bilan boyitilgan bo'lib, u ishq, taqdir va ijtimoiy mazmundagi ifoda vositalari orqali o'ziga xos yangi ruhiyat kasb etgan. "Qaro ko'z" – an'anaviy go'zallik ramzi bo'lib, ishq olamining hayratomuz va sehrli jozibasini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu ishq g'avgo keltiruvchi kuchga ega, ya'ni sevgi beqarorlik va notinchlik keltirishi mumkin. Furqatga ko'ra, baytda tasvirlanmish yor shu qadar go'zalki, uning ko'zlari surmaga muhtoj emas. Biroq u o'rinsiz bo'lsa-da ko'zga surma tortgan. Bu go'zallik esa faqat oshiq uchun emas, balki butun dunyo ("dahr eli") uchun g'avgo va beqarorlik keltiradi.

Shoir yorning sochlarini misk va xushbo'ylik bilan bog'laydi. Bu yerda "bog'bon" obrazi tabiatdagi go'zallikni inson go'zalligi bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilgan. "Kokulingdan bo'y olgan bog'" – yorning sochlari xuddi bir bog'ning (mushki soro) xushbo'y gullaridek atrofga o'z atrini sochadi.

Ne bilur Yusufki, nozu husn ila mag'rurdur,

Ul qadarkim, ishq dardini Zulayxo tortadur.

Yusuf va Zulayxo qissasi islomiy adabiyotda sevgi, sabr va vaf o timsoli hisoblanadi (talmeh). Shoir Yusuf obrazini beqiyos go'zallik ramzi sifatida tasvirlar ekan, tarixda mashhur bo'lgan bu savdo shahrida Zulayhoga xayrixohlik bildiradi. Baytda shoirming bu achinishi ishq dardini Yusuf emas Zulayho tortgani bilan izohlanadi, go'yo.

Ishqni pinhon tutarg'a bo'lma shaydo, ey ko'ngul,

Mushk pinhon bo'lsa, bo'yi oshkoro tortadur.

Shoir ko'ngil obraziga murojat qilarkan uni ishqni pinhon saqlashga, yashirishga ko'p ham shaydo bo'lavermaslikka chaqiradi. Chunki uning oshkor bo'lishi aniq. Ikkinchi misrada shu fikr shoir tomonidan tamsillangan. YA'niki, Mushk ishqqa qiyoslangan. Mushkni qanchalik yashirmang xushbo'y hidi uni oshkor qilaveradi. Shuning uchun muhabbatdan qochish yoki uni inkor qilish foydasiz.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'man,

Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.

Bu yerda dunyoning nohaqligi va taqdirning adolatsizligi haqida gap boryapti.

2. Jadidchilik g'oyalarining ta'siri. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati adabiyotda yangi poetik tafakkurni shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Bu g'oyalar poetik mazmunning yangilanishiga turtki berdi. Natijada davr shuarosi she'rlarida ta'lim-tarbiya va ma'naviy yuksalish g'oyalari ko'tarildi. Uning ko'pgina she'rlarida estetik zavq bilan ijtimoiy mazmun uyg'unlashgan. Zavqiy va boshqa shoirlar o'zbek xalqining o'zligini anglash va uni rivojlantirish g'oyalarini ilgari surdilar. "Ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan Zavqiyning ayrim she'rlari, maqolalari "Turkiston viloyatining gazetisi", "Sadoyi Farg'ona", "Tirik so'z", "Najot" gazetalarda hamda "Al-Isloh" jurnalida bosilib turdi. Zavqiy she'rlaridagi ijtimoiy ruh 1916 – 1918 yillarda yanada kuchaydi. Uning bu davrda yaratilgan "Ajab ermas", "Ko'z ochaylik", "Qissai Farg'ona" kabilar shoir ijtimoiy lirikasining yorqin namunalaridir" [1. 5].

Fikrimizni Zavqiyning "Ko'z ochaylik" radifli muxammasi tahlili bilan isbotlasak:

Fursat g'animat, ahhob, millatga ko'z ochaylik!

Sa'y ila jonu dilda himmatga ko'z ochaylik!

Dinu diyonat istab, g'ayratga ko'z ochaylik!

Haq amri farz birla sunnatga ko'z ochaylik!

Umr o'tti g'aflat ila, ibratga ko'z ochaylik! [1. 60]

Zavqiyning ushbu muxammasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jadidchilik g'oyalarining adabiy ifodasi sifatida o'z davridagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarga javob beradigan va xalqni uyg'onishga undaydigan muhim asardir.

Shoir mazkur muxammas orqali davrni ma'naviy va aqliy uyg'onishga chorlagan. Zavqiy xalqni g'aflat uyqusidan uyg'onib, o'z hayoti, dini va millati uchun mas'uliyatni his qilishga undaydi:

Tasvirlar va obrazlar: "Ummidimiz guli ham bu navbahor ochildi" satrida bahor fasli va gul ochilishi orqali yangi umid va imkoniyatlar ramziy tasvirlanadi. Rus olimi Y. Borev "adabiy ramz o'zida timsol va g'oyani birlashtiradi" [6], degan. Xudda shu ma'noda, Zavqiy she'rida bahor fasli va gul ochilishi na faqat tabiiy manzara sifatida, balki ijtimoiy yangilanish va ma'naviy uyg'onish ramzi sifatida ham talqin qilinadi. "Qon yoshlar oqg'onig'a yuz lolazor ochildi" satrida esa o'tmishdagi qurbonliklar va azob-ukubatlardan keyingi imkoniyatlar va go'zallikka erishish g'oyasi mujassamlashgan.

Musiqiy ohang: Muxammasning vazni va qofiyasi (masalan, "ochildi" so'zining takrori) she'rga ritmik tuzilish berib, uni xushohangligini ta'minlagan. Bu esa o'quvchiga she'rni o'qish yoki eshitish jarayonida estetik lazzat bag'ishlaydi.

Kontrast (tazod): "Sarmast edik hamisha, emdi xumor ochildi" satrida mastlik (beg'uborlik) va xumor (uyg'onish) o'rtasidagi kontrast orqali o'tmish bilan yangi davr o'rtasidagi farq poetik usulda go'zal ifodalangan, bu esa she'rning estetik qimmatini oshiradi.

"Hushyor o'lub, muvaqqat suhbatga ko'z ochaylik!", – satrida shoir xalqni g'aflatdan uyg'onishga va fursatdan foydalanib, ma'naviy-ijtimoiy o'zgarishlarga e'tibor qaratishga undaydi. Bu jadidchilik g'oyalariga xos bo'lgan ma'rifat va faollikka da'vatdir.

Zavqiy o'zbek xalqining o'zligini anglash va uni rivojlantirish uchun kurashish kerakligini ta'kidlaydi. U millatning ma'naviy va moddiy xazinasini asrash va undan foydalanishga undaydi:

Bo'lg'on vakil bizg'a, ey, mutlaqul-inonlar,
Tangri ato qilibdur, hol o'zgarish zamonlar,
Millat xazoyinina, ey, yaxshi posbonlar,
Sarf aylang ushbu yo'lda bosh birla naqdi jonlar,
Bir ish qilingki, Zavqiy, hayratg'a ko'z ochaylik!

Zavqiy she'rda ta'lim va ma'naviy yuksalishning muhimligini ta'kidlaydi. U xalqni (ochib qulog'in) bilim va fatvo orqali ma'rifatlanishga undaydi.

Xullas, Zavqiyning "Ko'z ochaylik" g'azali jadidchilik harakatining poetik ifodasi sifatida o'z davridagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarga yorqin javob bergan. Unda din, ma'rifat, adolat va milliy o'zlik g'oyalari uyg'unlashib, xalqni uyg'unishga, faollikka va islohotlarga undaydi. She'rning musiqiy ohangi va tasvirlari esa uning estetik qimmatini oshiradi. Bu asar Zavqiy ijtimoiy lirikasining eng muhim namunalaridan biri sifatida o'z o'rmini egallaydi. Jadidchilikning bu ta'siri poetik mazmunni faqat lirik tuyg'ular bilan cheklab qo'ymay, uni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy mavzular bilan kengaytirdi. Bu estetik jihatdan yangi qarashning shakllanishiga xizmat qildi.

3. Til va uslub yangiligi. Poetik janr va mazmun yangilanishi til va uslubdagi o'zgarishlar bilan ham ko'zga tashlandi. Zavqiy kabi shoirlar she'riyatda xalq og'zaki ijodi an'analaridan keng foydalandi. Bu she'rlarning estetik ta'sirini oshirdi va ularni keng ommaga yaqinlashtirdi. Murakkab aruz vazni saqlangan bo'lsa-da, Muhiy va Furqat asarlarida tilni

soddalashtirish va fikrni ochiq ifodalashga intilish kuzatildi. Yangi mavzularga mos ravishda poetik obrazlar ham yangilanib, tabiat, hayot va inson taqdiriga oid yangi ramziy ma'nolar yuzaga keldi. Til va uslubdagi bu o'zgarishlar adabiy-estetik asoslarni mustahkamlab, she'riyatning ta'sirchanligini oshirdi.

4. Estetik ideallarning o'zgarishi. Qo'qon adabiy muhitidagi shoirlar uchun estetik ideal faqat go'zallikni tasvirlash bilan cheklanmadi. Ular uchun she'riyatdagi go'zallik ma'no chuqurligi va ijtimoiy ahamiyat bilan o'lchana boshladi.

Xulosa. Muhiy va unga zamondosh shoirlar ijodida poetik janr va mazmun yangilanishi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Qo'qon adabiy muhitida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yuz bergan bu jarayon klassik an'analar, jadidchilik g'oyalari, til-uslub yangiliklari hamda estetik ideallarning o'zgarishiga asoslandi. Shoirlar an'anaviy janrlarni saqlagan holda ularga ijtimoiy-siyosiy, ma'naviyat va ma'rifatga oid yangi mazmun singdirib, she'riyatning jamiyatdagi rolini kuchaytirdilar. Muhiy, Furqat, Zavqiy va Muqimiy kabi ijodkorlar o'z asarlarida klassik shakllarni zamonaviy g'oyalar bilan boyitdi, tilni soddalashtirib, xalqqa yaqinlashtirdi va estetik qadriyatlarni ma'no chuqurligi bilan o'lchaydigan yangi darajaga ko'tardi. Natijada, ular o'zbek she'riyatida an'ana va yangilik uyg'unligini ta'minlab, keyingi adabiy islohotlar uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu davrdagi adabiy-estetik yangilanish o'zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim iz qoldirdi va uning ijtimoiy-ma'naviy vazifasini yanada kengaytirdi.

ADABIYOTLAR

1. Завкий. Ажаб замона: Шеърлар/Ўйловчилар: А. Мадаминов, А. Турдалиев, —Т.: «Шарк», 2003. —176 б.
2. Зокиржон Фуркат. Фасли навбахор ўлди [Матн]. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳлар муаллифи ва масъул муҳаррир: Нурбой Жабборов. – Тошкент: “Адабиёт” нашриёти, 2023. – 128 бет.
3. Куделин А. Б. Классическая арабо-испанская поэзия. – М.: Наука, 1973
4. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Л.: Просвещение, 1972, стр.130.
5. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Т.: Мумтоз сўз, 2008.
6. Боров Ю.. Эстетика литературы. – М.: Наука, 2003, стр. 400.